



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (2)**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
2-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI .....	12
<b>Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>Shermuxe'dov Akmal Komiljonovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА .....	21
<b>Салимова Зиёда Рустамжон қизи</b>	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH .....	27
<b>Xojimuro'dov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	32
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	36
<b>Soyibova Matluba Ahmedboyevna</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	41
<b>M.O. Yo'ldoshova</b>	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH .....	45
<b>Anvar Deberdiyev</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI .....	49
<b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR .....	55
<b>Ishimova Mohinur Absalomovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	61
<b>Zakirova Gulnoza Qu'dratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna</b>	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	67
<b>Iskanov Xoljigit Nurkosimovich</b>	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI .....	73
<b>Suyunov Yorqin Bekmuro'dovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	79
<b>Yuldashev Akmal Kiyomovich</b>	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH .....	83
<b>Abirova Nargizabonu</b>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI .....	88
<b>Turayev Abduvohid Kuldashevich</b>	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
<b>Artiqova O'g'iljon Zafar qizi</b>	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	101
<b>Rustamov Zafar</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	107
<b>Metyakubov Azamat Djumanazarovich</b>	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	111
<b>Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	116
<b>Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.</b>	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	121
<b>Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
<b>Melibayev Sodir Adilovich</b>	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI .....	135
<b>Sheraliev Abbos Xolmuminovich</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN .....	140
<b>Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov</b>	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI .....	147
<b>Yuldashev Adhamjon Axadjonovich</b>	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
<b>Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li</b>	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
<b>To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi</b>	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI .....	162
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....	166
<b>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</b>	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	171
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	175
<b>Bo'taev O'tkir Eshboevich</b>	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
<b>Umarova Malika Nematjanovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
<b>Рахмонов Джамшид Одил угли</b>	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
<b>Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна</b>	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
<b>Avazbek Jo'rayev</b>	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	207
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	211
<b>Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich</b>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
<b>Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
<b>Mohichexra Melikovna Mo'minova</b>	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI .....	233
<b>Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	239
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI .....	245
<b>Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich</b>	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
<b>Daminov Mirvoxid Isroilovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL .....	255
<b>Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	264
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
<b>Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович</b>	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI .....	276
<b>Namozov Shahzod Maxmud o'g'li</b>	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
<b>Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna</b>	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN .....	290
<b>Shokhrukh Ziyavaddinov</b>	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI .....	299
<b>Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI .....	306
<b>Turdiyev Izatulla Ollaqulovich</b>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	312
<b>Xoliqulova Yulduz Panji qizi</b>	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIJ TAJRIBASI .....	317
<b>Mavlonov Ozod Ulug'bekovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	322
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	330
<b>Boltayev Zokirjon Otanazarovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	334
<b>Adilova Zohida Ikromjonovna</b>	
MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	339
<b>Umurzakov Dilshodbek Hakimovich</b>	
ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕНЕДЖМЕНТА В УСЛОВИЯХ УДАЛЁННОЙ РАБОТЫ .....	345
<b>Хамидов Далер Дилшодович</b>	
ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG'IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA.....	351
<b>Choriyeva Dilovar Tohir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
CONSUMER TRUST IN UZBEKISTAN'S E-COMMERCE .....	356
<b>Erkin Shavqiyev Professor, Ulugmurodov Farkhod</b>	
IMPROVING THE FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES.....	362
<b>Karamatdinova Aysawle Parakhatovna</b>	
XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI TAHLILI: O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	369
<b>Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH .....	374
<b>Islomov Bobur Bahodir o'g'li</b>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARGA AMORTIZATSIYA HISOBLASH USULLARI VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	380
<b>Xasanov Shoxrux Raximjonovich</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA REAL SEKTOR KORXONALARINING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	385
<b>Sobitova Ra'no Solidjonovna, Babaxadjayev Firdavs Bahodir o'g'li</b>	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEK CONSULTING SERVICES MARKET AND METHODS FOR ASSESSING THE POTENTIAL FOR ATTRACTING INVESTMENTS .....	388
<b>Usmonova Dilfuza Ilkhomovna</b>	
RESPUBLIKAMIZDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARDAN FOYDALANISH.....	394
<b>Kalanova Moxigul Baxritdinova</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA KORXONA BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	399
<b>Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li</b>	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK MAJMUALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ROSSIYA TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	406
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich</b>	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA CHIQUINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINING ZAMONAVIY MODELLARI .....	416
<b>Xasanov Komil Mutalibjanovich</b>	
TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLARI: EMPIRIK TAHLIL .....	421
<b>Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi</b>	
METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FINANCIAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF ADDITIONAL ACTIVITIES IN FARM ENTERPRISES .....	426
<b>Kalimbetov Khaliknazar Kurbanbaevich</b>	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	432
<b>Suyarov Shaxzod Salim o'g'li</b>	
XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARIDAN O'ZBEKISTONGA JALB ETILGAN IMTIYOZLI MABLAG'LARNING SAMARADORLIGI .....	438
<b>Turdiyeva Zarnigor Asqar qizi</b>	
NAVOIY VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH.....	442
<b>Turayev Abduvoxid Kuldashevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKNI BOSHQARISHNING XORIJIY AMALIYOTI.....	448
<b>Turg'unov Nodirbek Muminjanovich</b>	
KORXONALARDA STRATEGIK REJANI ISHLAB CHIQUISH DARAJALARI VA BOSQICHLARI .....	452
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
IQLIM O'ZGARISHINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	457
<b>Ozodxon Mahmudovna Qo'ziboyeva, Anvarbekov Fayzullo Rustamjon o'g'li, Rahmonova Xosiyatxon Fayzullo qizi</b>	



# IQLIM O'ZGARISHINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBA

**Ozodxon Mahmudovna Qo'ziboyeva**

Geografiya fanlari doktori, professor,  
Qo'qon davlat universiteti Geografiya kafedrasini,  
E-mail: [ozodaqoziboyeva@gmail.com](mailto:ozodaqoziboyeva@gmail.com)  
ORCID: 0009-0001-3366-4044

**Anvarbekov Fayzullo Rustamjon o'g'li**

Magistrant,  
Qo'qon davlat universiteti Geografiya va iqtisodiyot kafedrasini,  
E-mail: [anvarbekovfayzullo541@gmail.com](mailto:anvarbekovfayzullo541@gmail.com)

**Rahmonova Xosiyatxon Fayzullo qizi**

Magistrant,  
Qo'qon davlat universiteti Geografiya va iqtisodiyot kafedrasini,  
E-mail: [rahmonovagulizar5@gmail.com](mailto:rahmonovagulizar5@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining nazariy asoslari hamda uni yumshatishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar, jumladan, neoklassik va institutsional yondashuvlar kompleks ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida iqlim o'zgarishining agrar iqtisodiyotga ta'siri baholanib, qishloq xo'jaligi ekinlarini samarali yetishtirishda foydali haroratlar yig'indisining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, agrar sohada iqlim omillaridan oqilona va samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, sohaga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** iqlim o'zgarishi, neoklassik yondashuv, institutsional yondashuv, agrar iqtisodiyot, foydali haroratlar yig'indisi, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy yondashuvlar.

**Abstract.** This article comprehensively analyzes the theoretical foundations of climate change and modern economic approaches aimed at mitigating its effects, including neoclassical and institutional approaches. Within the framework of the study, the impact of climate change on the agrarian economy was assessed, and the significance of accumulated effective temperatures in the efficient cultivation of agricultural crops was scientifically substantiated. Furthermore, priority directions for the rational and efficient use of climatic factors in the agricultural sector were identified, and scientific and practical recommendations were developed.

**Key words:** climate change, neoclassical approach, institutional approach, agrarian economy, accumulated effective temperatures, agriculture, economic approaches.

**Аннотация.** В данной статье комплексно проанализированы теоретические основы изменения климата, а также современные экономические подходы, направленные на смягчение его последствий, включая неоклассический и институциональный подходы. В рамках исследования дана оценка влияния климатических изменений на аграрную экономику, а также научно обосновано значение суммы эффективных температур при эффективном выращивании сельскохозяйственных культур. Кроме того, определены приоритетные направления рационального и эффективного использования климатических факторов в аграрной сфере и разработаны научно-практические рекомендации.

**Ключевые слова:** изменение климата, неоклассический подход, институциональный подход, аграрная экономика, сумма эффективных температур, сельское хозяйство, экономические подходы.



## KIRISH

Keyingi o'n yilliklarda global miqyosda iqlim o'zgarishi jahon iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga, jumladan, qishloq xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayoni tabiiy-iqlim omillariga bevosita bog'liq bo'lgani sababli, haroratning oshishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, qurg'oqchilik hamda ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi agrar iqtisodiyot barqarorligiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, iqlim o'zgarishining agrar iqtisodiyotga ta'sirini nazariy jihatdan asoslash, mavjud ilmiy yondashuvlarni takomillashtirish hamda xalqaro tajribani tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqlim o'zgarishi va uning agrar iqtisodiyotga ta'siri masalalari so'nggi yillarda jahon ilmiy adabiyotida keng ko'lamda o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda nazariy yondashuvlar hamda amaliy (empirik) tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Neoklassik iqtisodiy yondashuv doirasida iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'siri asosan bozor mexanizmlari orqali baholanadi. Ushbu yondashuvda resurslar taqsimoti, narx signallari va fermer xo'jaliklarining moslashuvchanligi asosiy omillar sifatida qaraladi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi ta'sirida hosildorlikning muayyan darajada pasayishi kuzatilishi mumkin bo'lsa-da, bozor mexanizmlari orqali samarali moslashish imkoniyatlari mavjud.

Institutsional iqtisodiy yondashuvda esa iqlim o'zgarishining agrar sohaga ta'siri institutlar, davlat siyosati va boshqaruv tizimi orqali tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvda davlatning agrar siyosati, yerdan foydalanish qoidalari, suv resurslarini boshqarish tizimi hamda agrar islohotlarning samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda samarali institutsional muhit iqlim xavflarini kamaytirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi ta'kidlangan.

Empirik tadqiqotlarda iqlim o'zgarishining agrar ishlab chiqarishga ta'siri asosan harorat va yog'ingarchilik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar orqali baholanadi. Ayniqsa, "foydali haroratlar yig'indisi" ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi ekinlarining o'sishi va rivojlanish jarayonlarini baholashda muhim indikator sifatida qo'llanilmoqda. Ilmiy ishlarda ushbu ko'rsatkich yordamida ekinlarning hududiy moslashuv darajasi hamda hosildorlik imkoniyatlari aniqlanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda iqlim o'zgarishiga moslashish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sug'orish tizimlarini takomillashtirish hamda agrosug'urta mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa asosiy e'tibor tabiiy resurslardan samarali foydalanish, agrar siyosatni takomillashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda iqlim o'zgarishining agrar iqtisodiyotga ta'sirini baholashda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni o'zaro uyg'unlikda tahlil qiluvchi kompleks yondashuvlarning ahamiyati ortib borayotgani qayd etilmoqda.

Iqlim o'zgarishi va uning agrar iqtisodiyotga ta'siri masalalari xalqaro ilmiy doiralarda ham keng tadqiq etilmoqda. Xususan, Intergovernmental Panel on Climate Change hisobotlarida global haroratning oshishi qishloq xo'jaligi hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, Organisation for Economic Co-operation and Development hamda Food and Agriculture Organization tadqiqotlarida suv resurslaridan samarali foydalanish, iqlimga moslashgan agrotexnologiyalarni joriy etish va "climate-smart agriculture" konsepsiyasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari, Akhmadaliyev, Qo'ziboyeva va Kholiqov kabi olimlarning ilmiy ishlarida Farg'ona vodiysi landshaftlari, irrigatsiya tizimlari hamda yer degradatsiyasi jarayonlarining iqlim omillari bilan o'zaro bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda iqtisodiy, ekologik va institutsional omillarni uyg'unlashtirgan kompleks tahlillar agrar iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'sirini tahlil qilish hamda uning agrar iqtisodiyotga ta'sirini baholashda bir qator nazariy yondashuvlardan foydalaniladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar iqtisodiy nazariyalar asosida shakllantirilib, iqlim omillarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sirini turli jihatlar orqali izohlash imkonini beradi. Shunday yondashuvlardan biri neoklassik iqtisodiy yondashuv hisoblanadi.

Neoklassik iqtisodiy yondashuv doirasida iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish omillarining samaradorligiga ta'siri nuqtayi nazaridan baholanadi. Ushbu jarayonda havo harorati va yog'in miqdoridagi o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qaraladi. Xususan, havo haroratining ortib borishi qishloq xo'jaligiga biologik, agrotexnik va iqtisodiy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, yuqori harorat o'simliklarda fiziologik



stress holatini yuzaga keltirib, fotosintez jarayonining samaradorligini pasaytiradi, vegetatsiya davrining qisqarishiga sabab bo'ladi hamda suv tanqisligi va bug'lanish jarayonining kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, iqlim omillaridagi o'zgarishlar o'simliklarning changlanishi va urug'lanish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatib, hosildorlik darajasining pasayish ehtimolini oshiradi. Bundan tashqari, yuqori harorat va namlik rejimidagi o'zgarishlar zararkunandalar hamda turli kasalliklarning ko'payishiga qulay sharoit yaratadi, tuproq sho'rlanishi va degradatsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Natijada ushbu omillar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga hamda agrar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'z navbatida, ekstremal ob-havo hodisalarining kuchayishi va anomal sovuqlarning kuzatilishi qishloq xo'jaligi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ekstremal ob-havo hodisalarining chastotasi va intensivligining ortib borishi agrar ishlab chiqarish jarayonlarida turli xavf omillarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, havo haroratining keskin pasayishi, kech kuz va erta bahordagi sovuq urishlar, kuchli shamollar hamda haroratning qisqa muddat ichida keskin o'zgarishi qishloq xo'jaligi ekinlarining vegetatsiya jarayonlariga ta'sir etib, hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur yondashuv qisqa va o'rta muddatli iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi hamda iqlim omillarining agrar iqtisodiyotga ta'sirini kompleks baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari uchun optimal harorat va namlik ko'rsatkichlarini aniqlash agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqlim o'zgarishiga moslashuvchan qishloq xo'jaligi tizimini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Qishloq xo'jalik ekinlarini harorat va namlikka moslashuvi<sup>1</sup>

Ekin turi	Optimal havo harorati (°C)	Minimal va maksimal haroratlar (°C)	O'simliklar uchun optimal havo namligi	O'simliklar uchun ijobiy ta'siri
Sholi	25–30	Minimal – 12–15 Maksimal – 35–38	70–90 %	Yuqori harorat va namlik sharoitida yaxshi rivojlanadi
Paxta	25–30	Minimal – 12–14 Maksimal – 38–40	50–60 %	Iliq va nisbatan quruq iqlim sharoitida samarali o'sadi
Makkajo'xori	15–22	Minimal – 10–12 Maksimal – 35–38	60–70 %	Mo'tadil haroratda yuqori hosildorlikni ta'minlaydi
Bug'doy	15–20	Minimal – 5 Maksimal – 30	50–65 %	Sovuqqa nisbatan chidamli bo'lib, mo'tadil iqlimda yaxshi rivojlanadi
Arpa	15–20	Minimal – 6 Maksimal – 35	50–65 %	Sovuqqa chidamli ekin hisoblanadi
Poliz ekinlari (qovun, tarvuz)	25–30	Minimal – 14–16 Maksimal – 38–40	45–60 %	Quruq va issiq iqlim sharoitida samarali yetishtiriladi
Pomidor	20–25	Minimal – 10–12 Maksimal – 32–35	55–65 %	Mo'tadil issiqlik va namlik sharoitida yaxshi hosil beradi
Bodring	22–28	Minimal – 12–14 Maksimal – 35	70–80 %	Namlik yuqori bo'lgan sharoitda yaxshi rivojlanadi
Dukakli ekinlar (no'xat, mosh, loviya)	18–25	Minimal – 8–10 Maksimal – 32–35	55–65 %	Mo'tadil harorat sharoitida hosildorligi yuqori bo'ladi
Soya	20–26	Minimal – 10 Maksimal – 35	60–70 %	Issiqlik va mo'tadil namlikni yaxshi qabul qiladi
Kungaboqar	20–25	Minimal – 8–10 Maksimal – 35	50–60 %	Qurg'oqchilikka nisbatan chidamliligi yuqori

Mazkur yondashuv qisqa va o'rta muddatli iqtisodiy ta'sirlarni tahlil qilishda samarali hisoblanadi.

Institutsional iqtisodiy yondashuvda iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'siri ishlab chiqarish hajmi, samaradorlik va daromad ko'rsatkichlari asosida institutlar, davlat siyosati hamda boshqaruv tizimi orqali tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvda sug'urta tizimlari, davlat kafolatlari va turli davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali qishloq xo'jaligi daromadlarining barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, qishloq

1 Muallif tomonidan yaratilgan.



xo'jaligining yangi yo'nalishlarini rivojlantirish jarayonida davlat tomonidan investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash, jumladan, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va narxlarni kafolatlash kabi uzoq muddatli barqarorlik choralari amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanish va ekologik iqtisodiyot yondashuvida esa iqlim o'zgarishi ekologik muammo sifatida tadqiq etiladi. Mazkur yondashuv tabiiy resurslardan, xususan, suv va tuproq resurslaridan samarali foydalanish, pestitsidlar qo'llanilishini kamaytirish, "yashil texnologiyalar"ni joriy etish hamda iqlim o'zgarishiga moslashgan qishloq xo'jaligi — "climate-smart agriculture" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishga asoslanadi. Ushbu konsepsiya BMT tomonidan ilgari surilgan bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishiga moslashish, tuproqlarda uglerod chiqindilarini kamaytirish hamda energiya tejankor va ekologik texnologiyalarni keng qo'llashni nazarda tutadi.

Xavf va moslashuv yondashuvida iqlim o'zgarishi iqtisodiyot uchun muhim xavf omili sifatida baholanadi. Mazkur yondashuv doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan baholash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish orqali salbiy ta'sirlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mazkur masala bugungi kunda jahon miqyosida dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi tarmoqlari iqlim omillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda bu borada keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida agroekologik dasturlar, energiya va suv tejankor texnologiyalarni joriy etish, raqamli agrotexnologiyalardan foydalanish hamda qishloq xo'jaligida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy dronlar, sensorlar va GIS texnologiyalari yordamida qishloq xo'jaligi yerlari monitoring qilinib, o'simliklarning namlik darajasi, kasallanish holati hamda o'g'itlash me'yorlari aniq tahlil qilinmoqda. Shu bilan birga, tomchilatib sug'orish tizimlari keng joriy etilib, suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Israel qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish texnologiyasini keng joriy etgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda suv resurslarini qayta ishlash, sun'iy intellekt va dron texnologiyalaridan foydalanish orqali agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalar shakllantirilgan.

United Statesda esa davlat tomonidan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida subsidiyalar, sug'urta tizimlari hamda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Bu esa fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va sof foyda darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Osiyo mintaqasidagi yetakchi davlatlar — China va Indiada esa seleksiya va biotexnologiyalarni rivojlantirish, qurg'oqchilik va suvsizlikka moslashgan yangi ekin navlarini yaratish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish hamda raqamli agrotexnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida Xitoy tajribasi alohida e'tibor qozonmoqda. 1990–yillargacha asosan ichki ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan agrar siyosat yuritilgan bo'lsa, bugungi kunda innovatsion va intensiv texnologiyalar, biotexnologiya hamda "aqlli texnologiyalar" asosida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari natijasida mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda Xitoy meva-sabzavot, choy, baliq, go'sht mahsulotlari hamda sarimsoq eksporti bo'yicha jahon bozorida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, global miqyosda iqlim o'zgarishini yumshatish hamda unga moslashish jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu borada Israel, China va United States kabi davlatlar yetakchi tajribaga ega mamlakatlar qatoridan o'rin olmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida kunlik va oylik ob-havo ma'lumotlari tahlil qilinib, qishloq xo'jaligi ekinlarini hududlarning iqlim sharoitiga mos holda joylashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, sensor texnologiyalari orqali tuproq namligi darajasi aniqlanib, zarur agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'simliklardagi kasalliklar va zararkunandalarni erta bosqichda aniqlash, hosildorlikni prognoz qilish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Xitoy tajribasida qishloq xo'jaligida robotlashtirilgan texnologiyalarni qo'llash orqali hosil yig'ish, sug'orish va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari keng ko'lamda rivojlantirilmoqda.

Iqlim o'zgarishining agrar iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish maqsadida qishloq xo'jaligida zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, suv tejovchi sug'orish tizimlari, iqlimga moslashgan seleksiya navlari hamda raqamli monitoring texnologiyalaridan samarali foydalanish agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklarini



davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, agrosug'urta tizimini rivojlantirish va ekologik barqaror ishlab chiqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellekt, dron va sensor texnologiyalarini qishloq xo'jaligiga keng tatbiq etish nafaqat hosildorlikni oshirish, balki iqlim xavflarini oldindan prognoz qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda agrar iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boratov, A. X., Rasulova, M., & Qo'ziboyeva, O. M. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha xalqaro tajriba // *Muhandislik va iqtisodiyot*. – 2026-yil. – 1-maxsus son.
2. Qo'ziboyeva, O., & Sherbayeva, Z. Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri // *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*. – 2024. – № 1. – B. 6–6.
3. Kuzibaeva, O., Ulengov, R., Muminov, D., Boratov, A., Mahkamov, J., & Umarov, J. Climate Change and its Impact on Southern Fergana Landscapes // *J Open & Bioscience and Environment*. – Vol. 1. – № 2. – P. 17–23.
4. Akhmadaliyev, Y. Assessment of Anthropogenic Transformation of Landscapes in Fergana Region. – Fergana: Fergana State University Press, 2002–2015.
5. Qo'ziboyeva, O. M. Land Degradation and Reclamation Processes in Irrigated Landscapes of Fergana Region. – Fergana: Fergana State University, 2006–2022.
6. Qo'ziboyeva, O., & Sherbayeva, Z. Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri // *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*. – 2024. – № 1. – B. 6–6.
7. Kholiqov, R. Y. Landscape-Ecological Assessment of Irrigated Lands in Fergana Region. – Tashkent: FAN Publishing House, 1988.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (2)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---